

QORAQALPOG‘ISTON OYKONIMLARINING GRAMMATIK TUZILISHI

*Qurbanov Muxtarbay Dauletbaevich, Nukus davlat pedagogika
instituti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi*

GRAMMATICAL STRUCTURE OF OIKONIMS OF KARAKALPAKSTAN

*Kurbanov Mukhtarbay Dauletbaevich, Acting Associate Professor
Nukus State Pedagogical Institute, Candidate of Philological
Sciences*

ГРАММАТИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ОЙКОНИМОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

*Курбанов Мухтарбай Даулетбаевич, и.о. доцента Нукусского
государственного педагогического института, кандидат
филологических наук*



<https://orcid.org/0009-0006-4989-7965>

e-mail:

muxtar_kurbanov@mail.ru

Annotatsiya: Toponimikada joy nomlarini grammatik tuzilishiga ko‘ra tahlil qilish ularning semantik xususiyatlari, lug‘aviy asoslarini aniqlash imkonini beradi. Maqolada Qoraqalpog‘iston oykonimlarining grammatik tuzilishiga ko‘ra sodda va qo‘shma turlari aniqlangan. Hudud oykonimlari tarkibidagi affikslarning funksional-semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: toponim, oykonim, grammatik tuzilish, sodda, qo‘shma, affiks, topoformant, yasalish.

Abstract: In toponymy, the analysis of toponyms based on their grammatical structure allows us to determine their semantic features and lexical basis. The article highlights simple and complex types of oikonyms of Karakalpakstan based on their grammatical structure. The functional and semantic properties of affixes in territorial geographical names are revealed.

Key words: toponym, oikonim, grammatical structure, simple, complex, affix, topoformant, formation.

Аннотация: В топонимике анализ топонимов на основе их грамматической структуры позволяет определить их семантические особенности и лексическую основу. В статье выделены простые и сложные типы ойконимов Каракалпакстана на основе их грамматической структуры. Раскрываются функционально-семантические свойства аффиксов в территориальных географических названиях.

Ключевые слова: топоним, ойконим, грамматическая структура, простой, сложный, аффикс, топоформант, образование.

KIRISH. Har bir tilda mavjud toponimlar o‘z morfem tarkibiga ko‘ra turli tuzilishga ega. Ayrim joy nomlari bir komponentdan, boshqalari ikki, undan ortiq leksik birliklardan tashkil topgan. Til

leksik birliklari turli usullar va grammatik vositalar yordamida toponimga aylanadi. Shuning uchun ham, toponimlarni lingvistik jihatdan tahlil qilishda morfologik tasnif samarali usullardan biridir.

Toponimik tadqiqotlarda geografik nomlarning grammatik tuzilishi, yasalishi va tarkibiy xususiyatlariga ko'ra o'rganish keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA

METODOLOGIYA. Toponimlarni struktural-tipologik yo'nalishda o'rganish ishlari o'tgan asr o'rtalarida boshlandi. Rus tilshunosligida V.A.Nikonovning "Rus tili suffikslari geografiyasi" (1959), V.N.Toporov va O.N.Trubachevlarning "Yuqori Dnepr o'lkasi gidronimlarining lingvistik tahlili" (1962) deb nomlangan ilmiy asarlari toponimlarni struktur-tipologik jihatdan tahlil qilishning dastlabki namunalari bo'ldi. Keyinchalik bu ishlar A.K.Matveyev, G.Ya.Smina, P.M.Shanskiy, Yu.A.Karpenko, A.V.Superanskaya, O.T.Molchanovalar tomonidan davom ettirildi.

Turkiy toponimlar struktura-tipologik tahlil yo'nalishda dastlab G.E.Kornilov, G.I.Donidzlar tomonidan o'rganila boshladi. G.E.Kornilov turkiy toponimlar tarkibini tahlil qilar ekan, olim *geografik termin asosli* toponimlar, *atributiv sintagmali* toponimlar va *ellipsis toponimlar* degan turlarni ajratib berdilar [10]. G.I.Donidze turkiy toponimlarning *bir so'zli* va *ko'p so'zli* turlarini ko'rsatib o'tgan. Bir so'zli joy nomlar *affiksli*, *affikssiz* turlarga ham ajratilgan. Affikssiz toponimlar asosi ot, sifat, fe'l va ravishlarning toponimloshuvidan hosil bo'lgan[6]. Bu kabi tasniflash A.V.Superanskaya ishlarida ham kuzatiladi [14].

NATIJALAR. O'zbek tilshunosligida hozirgacha olib borilgan ilmiy ishlarda toponimlar grammatik tuzilishiga ko'ra turlicha talqin qilinganini ko'rish mumkin. Z.Do'simov "Xorazm toponimlari" deb nomlangan monografik asarida joy nomlarini morfem tuzilishiga ko'ra *apellyativli*, *formantli* va *indikatorli* deb uch turga ajratganlar[7]. O'zbek oykonimlarining grammatik jihatdan turlari S.Nayimov, N.Oxunov, A.Turabov va Yu.Nematovalar ishlarida ham maxsus tahlil qilingan.

Qoraqalpog'iston toponimlarining grammatik tuzilishi, yasalishi dastlab Q.Abdimuratov tomonidan o'rganildi. Uning (T.Begjanov bilan hammualliflikda) "Qoraqalpoq tili toponimlarining

struktural-tipologik tuzilishi" deb nomlangan maqolasida toponimik materiallar quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Sodda toponimlar: *Lar, Shege, Qir, Kegeyli, Baqali, Baxtli* v.b.;

2. Qo'shma toponimlar: *Aqbulaq, Qiziljar, Mamiy dalasi* v.b. [3].

So'ngi yillari Qoraqalpog'iston toponimlarini struktur-formal aspektida tahlil qilish bo'yicha qator ilmiy ishlar bajarildi. Q.Paxratdinov Qoraqalpog'iston toponimlarini tarkibiy tuzilishiga ko'ra *sodda*, *murakkab* va *birikmali* deb o'rgandilar. Sodda toponimlar o'z tarkibida *tub* va *yasama* deb qaraldi: *Qumliq, Daryaliq, Taslaq* v.b. Ot, sifat, son, fe'l so'zlar birikishidan hosil bo'lgan atamalar *qo'shma* deb qaraldi: *Aymantaqir, Qazanjap, Aqqum* v.b. [12].

G.Abishovning ilmiy ishlarida ham Qoraqalpog'iston toponimlari tuzilishi jihatdan sodda va qo'shma deb tahlil qilingan: *Kenes, Kompleks, Shag'irliq, Suwshi, Anna awili, Tut terek, Shaxtemir koshesi, Aqjap, Ushinshi awil, Egizqum* v.b. [1].

N.V.Podolskaya toponimik materiallarni grammatik jihatdan tasniflash muhimligini ta'kidlar ekan, bu tamoyil ma'lum hududga xos toponimlarni aniqlash, materiallarni to'g'ri tahlil qilish hamda tadqiqotning keyingi bosqichiga to'g'ri yo'nalish bo'lishini yozadi[13]. V.A.Nikonov fikrlari ham e'tiborga loyiq, ya'ni toponimlarning barcha turlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, shuning uchun ham har bir toponim paydo bo'lish sabablari, asoslari alohida emas, balki toponimik tizim tarkibida, ma'lum hudud toponimlari bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim[11]. Demak, oykonimlar toponimlarning bir turi, ular toponimik qonunlar, tamoyillar asosida o'rganilishi kerak. Yuqorida olimlar fikrlariga tayangan holda Qoraqalpog'iston oykonimlarini grammatik tuzilishiga ko'ra *sodda* va *qo'shma* deb bo'lib o'rgandik.

MUHOKAMA. Tarkibiy tuzilishiga ko'ra birgina lug'aviy asosdan iborat bo'lgan joy nomlari sodda oykonimlarni tashkil etadi. Turkiy toponimiyada sodda oykonimlar qo'shma turga nisbatan kam. Bu turga mansub atamalar bir komponentli, qisqa bo'lishi iste'molda qulaylilik paydo qiladi.

Oykonimlar tarkibida tovushlar tushishi, soʻzlar eliziyasi, morfemalar orttirilishi kabi hodisalar nomning formal oʻzgarishiga, tahlil jarayonini qiyinlashtirishga, baʼzan toponimik maʼno oʻzgarishiga olib kelishi ham mumkin. V.D.Belenkaya fikricha, toponimlar tahlilida ikki narsaga alohida eʼtibor qaratish lozim, yaʼni toponimlarning hozirgi holati sinxronik, paydo boʻlish tarixi diaxronik faktor deb qaralmogʻi kerak[4].

Professor T.Enazarov turkiy sodda toponimlarni *tub* va *yasama* deb tahlil qilgan[16]. Boisi, toponimlar tarkibida affikslar ishtiroki inobatga olingan. Qoraqalpogʻiston oykonimlari misolida koʻradigan boʻlsak quyidagicha:

Affikssiz oykonimlar – tarkibiy jihatdan faqat oʻzakdan iborat, hech qanday grammatik formalarsiz, nol koʻrsatkichli atamalar: *Mulk*, *Ornek*, *Bostan Kenes*, *Shege* v.b. Qoraqalpogʻiston toponimiyasida bu tur oykonimlar juda kam. Shunday boʻlsa ham, ular turkiy toponimiyada alohida oʻrin tutadi.

Affiksli oykonimlar – tarkibida soʻz yasovchi affikslar bor boʻlgan atamalar: *Aqbash awılı*, *Boyanlı awılı*, *Donızlı awılı*, *Kendirli awılı*, *Qarabaylı elatı* v.b.

Toponimik tadqiqotlarda geografik nomlar tarkibidagi affikslar haqida turli qarashlar mavjud. Professor Z.Doʻsimov toponimikaga bagʻishlangan risolasida toponimlar yasalishi va tuzilishi turlicha talqin qilinib kelayotganini yozadi. Bu borada ayrim noaniqliqlarni ham koʻrsatib oʻtadi. Soʻz yasovchi ayrim affikslar asossiz toponim yasovchi deb qaralmoqda. Shuning uchun ham, toponimlar yasalishi masalasini oʻrganish toponimikaning muhim vazifalaridan biri[8]. S.Ataniyazov Turkmaniston toponimlarini oʻrganar ekan *-li/-li*, *-chi* affikslari sodda va qoʻshma toponimlar yasashda faol, deb yozadi: *Arbachi* (“Orbachi”), *Avchi* (“Ovchi”), *Paxtachi* (“Paxtakor”)[2]. D.Isayev Shimoliy Qirgʻiziston toponimiyasi uchun *-li*, *-lik*, *-luu*, *-ti* affikslari xarakterli desa [9], R.Shakurov boshqird toponimlarining koʻpi *-li* va *-lik* affikslari yordamida paydo boʻlgan, deb taʼkidlaydi[15]. Bunday qarashlar J.B.Bugʻibayeva (Qozogʻiston),

Q.Abdimuratov (Qoraqalpogʻiston) ishlarida ham kuzatiladi [5;3].

Shuni taʼkidlash joizki, affiksli toponimlarni affiksatsiya bilan yasalgan deb boʻlmaydi. Masalan, *Kegeyli* (“kegay terak koʻp joy”), *Aqbasli* (“oq bosh oʻsimligi koʻp joy”), *Tikenli* (“tikanli, tikan koʻp joy”), *Taslaq* (“mayda toshli, toshloq joy”) nomlari tarkibidagi *-li/-li*, *-laq* affikslari toponim hosil qilish xarakteriga ega emas. Ular toponimgacha soʻz yasash vazifasini bajarib boʻlgan. Yaʼni, tilda avvaldan mavjud *kegayli*, *oqboshli*, *tikanzor*, *toshloq* soʻzlari tayyor holda toponim vazifasiga oʻtgan.

Tarkibiy tuzilishiga koʻra birdan ortiq lugʻaviy birliklardan tashkil topgan geografik nomlar *qoʻshma oykonimlar* sifatida tadqiq etiladi. Ular ham tarkibidagi komponentlarning toʻliq yoki qisman birikish darajasiga koʻra *murakkab* va *birikmali* deb boʻlinadi.

Murakkab oykonimlar – tuzilishiga koʻra soʻz birikmasi shaklida boʻlgan oykonimlar. Ular morfologik asosi va tuzilish modeliga koʻra quyidagi turlarga ajratiladi:

a) ot va ot soʻz birikmasi modeli: *Abat makan awılı*, *Shegara terek awılı*, *Dosliq bayragʻı elatı*, *Ferma tam awılı* v.b.;

b) sifat va ot soʻz birikmasi modeli: *Gone Esim awılı*, *Gone Tortkul awılı*, *Taza Bagʻjap awılı*, *Taza Amirabad*, *Qıysıq terek awılı* v.b.;

v) son va ot soʻz birikmasi modeli: *Alpıs jıllıq*, *Tort Sharyar*, *Qırq jıllıq* v.b.

Birikmali oykonimlar – birdan ortiq lugʻaviy birliklarning toʻliq birikishidan hosil boʻlgan oykonimlar. Bu model asosida tarkib topgan oykonimlar komponentlarining qanday soʻzlardan iborat boʻlishiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

a) “Ot+ot” tipi: *Begjap*, *Tabankoʻl*, *Juzimbagʻ*, *Qamisariq*, *Qazaqdarya* v.b.;

b) “Ot+sifat” tipi. *Aqumbetshungil*, *Moynaq*, *Pillanoy*, *Tajenoy* v.b.;

v) “Sifat+ot” tipi: *Aqjay*, *Janabazar*, *Janajer*, *Janaqala*, *Tazabagʻ* v.b.;

g) “Sifat+sifat” tipi: *Qarateren*, *Sarishungil* v.b.;

d) “Son+ot” tipi: *Altutam*, *Besjay*, *Beskopir*, *Ontam*, *Togʻizuy* v.b.;

e) “Ot+feʼl” tipi: *Qazanketken*, *Qumbasqan*, *Mingjargʻan*, *Qiyatjargʻan* v.b.

Ta'kidlash joizki, toponimlar, jumladan, oykonimlar ham boshqa til birliklari kabi muayyan qoliplar asosida hosil bo'ladi.

XULOSA. Xulosa qilsak, har bir hudud toponimlari va oykonimlarini struktural-topologik jihatdan tahlil qilish til tarixi, tarixiy leksikologiya, dialektologiya, toponimika uchun qimmatli ma'lumotlar olish imkonini beradi. Chunki, har bir hudud, har bir til ko'p qirrali, tarixiy toponimlar tizimiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абишов Г. Чимбой тумани топонимларининг тарихий-лингвистик таҳлили: Филол.фан.б.фалс.док. ... дисс.автореф. – Нукус, 2019. – Б. 19-20.
2. Атаниязов С. Топонимия юго-восточного Туркменистана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 1969. – С. 11.
3. Бегжанов Т., Абдимуратов К. Структура каракалпакских топонимов. // Советская тюркология. – Баку: 1971. №6. – С. 85-88.
4. Беленькая В.Д. Очерки англоязычной топонимики. Учебное пособие. – М.: 1977. – С. 35.
5. Буғыбаева Ж.Б. Топоним жасамдық мәселесі. // KazNU Buletен. Philology series. 2014, №4-5 (150-151). – Б. 330.
6. Донидзе Г.И. О грамматической характеристике тюркских топонимов. // Ономастика Поволжья. – Горький: 1971. – С. 122-126.
7. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 47.
8. Дусумов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С. 24.
9. Исаев Д. Топонимика Северной Киргизии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Фрунзе, 1972. – С. 19.
10. Корнилов Г.Е. О типах топонимов агглютинативных языках. Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1967, №1. – С. 21-28.
11. Никонов В.А. Введение в топонимику. Изд. 2-е. – М.: Изд. ЛКИ, 2011. – С. 34.
12. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Каракалпакстан топонимлерининг қурылысы. // Илим ҳам жәмийет. – Нөкис: 2010. №1-2. – Б. 69.
13. Подольская Н.В. Некоторые формы славянизации иноязычных топонимов (на материале Новгородский территории). // Географические названия. – М.: 1962. №5. – С. 223.
14. Суперанская А.В. Структура имени собственного (Фонология и морфология). – М.: Наука, 1969. – С. 88-103.
15. Шакуров Р.З. Топонимия бассейна р. Демы: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1973. – С. 18.
16. Эназаров Т. Туркий содда топонимларнинг этимологик тадқиқи (2-китоб). – Тошкент: Университет, 2002. – Б. 5.

